

**Yangihayot tuman Gulshanobod MFY ko'chalariga kameralar o'rnatish
ob'yekti bo'yicha loyiha-smeta va loyiha-qidiruv ishlarni tayyorlash bo'yicha
OG/029- sonli SHARTNOMA**

Toshkent shahri

“03” iyun 2022 yil

Keyingi o'rnlarda Buyurtmachi deb yuritiladigan Toshkent shahar Yangihayot tuman hokimligi nomidan tuman hokimi **X.Inogamov** va keyingi o'rnlarda Loyihachi deb yuritiladigan **“OPTIMAL ARCHITECT GROUP” MCHJ** nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor **E.B.Choriyev** quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Loyihachi Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha belgilangan muddatda **Yangihayot tuman Gulshanobod MFY ko'chalariga kameralar o'rnatish** ob'yektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari, loyiha-qidiruv ishlarni ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o'tkazish majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Bajariladigan ishlarni tasdiqlangan loyiha oldi topshirig'iga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Shartnoma loyiha va loyiha-qidiruv ishlarni ishlab chiqishga, loyiha hujjatlarni tegishli ekspertizadan o'tkazish va texnik shartlarni (APZ-O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va Qurilish qo'mitasining 2017 yil 20-sentyabrdagi №8688/3302-sonli xatiga asosan zarur xollarda) tayyorlash bilan bog'liq boshqa ishlarga tuzilgan.

1.4. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Toshkent viloyati G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi xamda Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarni ishlab chiqish va buyurtmachiga topshirish ishlarni shartnomaning 2-ilovasidagi muddatda tugatiladi.

1.5. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlari ijobjiy davlat ekspertiza xulosasini olgandan so'ng 5 kun ichida 3 (uch) nusxada loyiha-smeta hujjatlarni va tegishli hujjatlarni Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning baxosi 1-ilovaga muvofiq **2 690 000(ikki million olti yuz to'qson ming) so'm** QQS 15% bilan so'mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi loyiha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Toshkent viloyati G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng xamda “Buyurtmachi”ning ob'yekt bo'yicha shaxsiy hisob varag'iga byudjetdan mablag' tushgandan so'ng 10 kun ichida shartnoma summasining 30% miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Bajarilgan ishlarni uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi va Loyihachi tomonidan dalolatnomalar rasmiylashtirilib “Buyurtmachi”ning ob'yekt bo'yicha shaxsiy hisob varag'iga byudjetdan mablag' tushgandan so'ng 15 kun ichida amalga oshiriladi.

2.4. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi tomonidan ko'rib chiqilib, ekspertizaga taqdim etilgandan so'ng, jami ishlarni hajmining 70% foiz miqdorigacha ishlarni bajarilgan deb qabul qilinadi.

Ob'yekt bo'yicha ekspertiza xulosasi olingandan so'ng va 3 (uch) nusxada loyiha-smeta hujjatlarni va loyiha-qidiruv ishlarni Buyurtmachiga taqdim etilgandan keyin qolgan mablag' topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, (mazkur shartnomaning 2.3-bandiga asosan) “Buyurtmachi”ning ob'yekt bo'yicha shaxsiy hisob varag'iga byudjetdan mablag' tushgandan so'ng moliyalashtiriladi. Bunda “Buyurtmachi” “Loyihachi” oldida to'liq bo'limgan yoki o'z vaqtida bo'limgan moliyalashtirish uchun javobgar emas.

2.5. Ishlarni qiymatini uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlarni hajmi O'zbekiston Respublikasi Xukumatining tegishli qarorlari asosida Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

3.Tomonlar majburiyatları

3.1. Buyurtmachi:

- barcha ishlarni bajarib bo'lingandan keyin belgilangan shartnoma narxining xammasini Loyihachiga to'lashi yoki ishlarning ayrim bosqichlari tugallanganidan keyin shartnoma narxining tegishli qismini to'lashi;

- tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining yoki bajarilgan qidiruv ishlarning kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo arizasidan ishda qatnashishga Loyihachi jaib qilishi shart.

Beeeeebs -

3.2. Loyihachi:

- Loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligiga, shuningdek loyiha-smeta hujjatlaridagi qabul qilingan loyihaviy yechimlarga javobgardir;
- loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqqandan so'ng loyiha-smeta hujjatlarini davlat ekspertizasi va kompleks ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etadi.
- loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun topshiriqdagi va boshqa dastlabki ma'lumotlardagi talablarga, O'zbekiston Respublikasining tegishli amaldagi qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga qat'iy rioya qilishi shart;
- ishlarni loyihalash haqidagi topshiriq va boshqa dastlabki ma'lumotlarga muvofiq bajarishi;
- tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachi va foydalanuvchi tashkilotlar (shu jumladan suv ta'minoti, elektr tarmoqlari, gaz ta'minoti korxonalarini) bilan kelishib olishi shart;
- tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini va qidiruv ishlari natijalarini shartnomada belgilangan muddatlarda buyurtmachiga topshirishi;
- buyurtmachining roziligesiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi PF-5577-son farmoniga asosan ob'yeektni qurishning barcha bosqichlarida mualliflik nazorati majburiydir va Loyihachi shartnomasi qiymati doirasida mualliflik nazorati olib borishi shart;

3.5. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarida qabul qilgan loyihaviy yechimlari uchun yohud ularda aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir. Shuningdek keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'yeektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Loyiha-smeta hujjatlarida yoki qidiruv ishlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Loyihachi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha qidiruv ishlarni bajarish, shuningdek, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'limasa, keltirilgan zararni buyurtmachiga to'lashi shart.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilish Loyiha-smeta hujjatlarini bajarish loyiha oldi topshirig'i talablariga binoan belgilanadi.

4.2. Ishlar bajarilishining alohida bosqichi va shartnomasi bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Loyihachi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.2 bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Loyihachiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

4.4. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

4.5. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolar kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.6. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

4.7. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi mumkin.

5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Loyihachi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Qo'shimcha shartlar

6.1. Loyihachi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va o'rnatilgan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

Dreeee b3 -

6.2. O‘zaro muloqat yo‘li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlarida o‘rnatalgan tartibda hal qilinadi. Kelishuvga kelinmagan takdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar O‘rtachirchiq tumanlararo Iqtisodiy sudida e’tiroz tartibiga rioya qilgan xolda, ko‘rib chikiladi. E’tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko‘rib chiqish muddati e’tiroz bildirilgan tomon organidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi.

6.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

6.4. Loyihachi shartnomada ko‘rsatilgan ishlarni bajarish uchun, Buyurtmachini belgilangan tartibda ma’lum qilgan holda, uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

6.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to‘lov o‘z vaktida o‘tkazilmagan xolda kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to‘lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

6.6. Buyurtmachi tomonidan to‘lovlar bilan bog‘liq o‘z majburiyatlar kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to‘lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim, bunda Buyurtmachiga bog‘liq bo‘lmagan holatlari bundan mustasno.

6.7. Loyihachi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va buyurtmachiga topshirish o‘z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo‘lsa, Loyihachi Buyurtmachiga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim;

6.8. To‘langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.9. Ushbu shartnoma o‘zbek tilida ikki nusxada tuzildi.

6.10. Mazkur shartnoma tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarguncha qadar xamda 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

6.11. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Shartnoma bahosining kelishuvi bayonnomasi (1-ilova)
- Loyiha-smeta va qiduruv ishlarni bajarish uchun kalendar rejasи (2-ilova)
- Loyiha va qiduruv ishlari narxini aniqlash smetasи (3-ilova)

7. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

“Buyurtmachi”	“Loyihachi”
<p>Toshkent shahar Yangihayot tuman hokimligi Toshkent shahri, Yo‘ldosh-1 dahasi, 1A-uy, Sh/hr: <u>401722860212927011209018029</u></p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi h/r:23402000300100001010 MFO 00014 STIR 207 329 489 MB Toshkent shahar bo‘yicha BBKM</p> 	<p>«Optimal Architect Group» MCHJ Manzil: Toshkent shahar, Yakkasaroy tuman,Qushbegi, dahasi,23uy, 49-xonodon Telefon: +998 93 993-00-00 AT «Aloqabank»,Bosh ofis; Shayxontoxur tuman Xuvaydo ko‘chasi, 10- uy,14-xonodon h/r:20208000105284571001. MFO:00401 STIR:307 759 386.</p>
<p>Tuman hokimi _____ X. Inogamov</p> 	<p>Direktor: _____ E.B.Choriyev</p> 
<p>Yurist maslaxatchi _____</p> 	<p>Yurist _____ OPTIMAL ARCHITECT GROUP</p> 

Юрист мөнегиз
Дарёев
J. Dzholba


2021 yil «03» iyun dagi OG/029
-sonli shartnomaga 1- ilova

Shartnomma bahosining kelishuv

B A Y O N N O M A S I

Biz, quyida imzo chekuvchilar ob'ekti bo'yicha **Yangihayot tuman Gulshanobod MFY ko'chalariga kameralar o'rnatish** 2022-yil "03" iyun dagi OG/029-sonli shartnomma bahosi **2 690 000 (ikki million olti yuz to'qson ming) so'm** QQS 15% bilan, so'mga teng deb kelishilganini tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Loyihachi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.



2022 yil «03» iyun dagi
OG/O29-sonli shartnomaga 2- ilova

Loyiha-smeta va qiduruv ishlarini bajarish uchun

KALENDAR REJASI

T/p	Shartnoma bo'yicha ishlar nomi	Bajarish muddati	Hisob-kitob narxi, so'mda
1	Yangihayot tuman Gulshanobod MFY ko'chalariga kameralar o'rnatish ob'yektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari, loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqish	Boshlang'ich to'lov amalga oshirilgandan so'ng 3 kun	2 690 000(ikki million olti yuz to'qson ming) so'mni tashkil qiladi, QQS 15% bilan

“Buyurtmachi”



Toshkent shahar Yangihayot tuman hokimligi

X. Inogamov

“Loyihachi”

“OPTIMAL ARCHITECT GROUP”
MCHJ



Direktor

E.B.Choriyev



Toshkent shahar Yangihayot

tuman hokimi

X.Inogamovga

K A F O L A T X A T I

Yangihayot tuman Gulshanobod MFY ko'chalariga kameralar o'rnatish ob'yekti bo'yicha "OPTIMAL ARCHITECT GROUP" MCHJ loyiha tashkilotimiz tomonidan tanlov savdolarida qatnashish davrida taqdim etgan tanlov hujjatlarimizdagi loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun belgilangan muddatlarni tashkilotimiz sharoitidan kelib chiqib **3 kun muddatda loyiha-smeta hujjatlari to'liq ishlab chiqib buyurtmachiga taqdim etilishini hamda tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlaridagi fizik ish hajmlari va ishchi loyihalar bir-biriga to'g'ri kelishini kafolatlaymiz.**

Agarda qurilish davrida loyiha-smeta hujjatlaridagi fizik ish hajmlari bir-biriga mos kelmaslik holatlari yoki kamchiliklar yuzaga kelsa, vujudga kelgan kamchiliklar loyiha tashkilotimiz hisobidan to'liq qoplanishi haqida ogohlantirildik.

Loyiha tashkiloti
direktori



E.B.Choriyev

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 95336 на приобретение Янгиҳаёт туман Гулшанобод МФЙ кўчаларига камералар ўрнатиш ишларига смета хужжатларини

Способ проведения электронный

Дата 03.06.2022

Время рассмотрения 03.06.2022 14:13

Конкурсная комиссия Янгиҳаёт тумани хокимияти, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	XALISOV DONIYOR MURATOVICH	Комиссия раиси	Янгиҳаёт туман ҳокимлиги
Секретарь комиссии	OBIDOVA MADHIYA MATYOQUBOVNA	Секретар	Туман ҳокимлиги
Член комиссии	XUSHVAQTUV ISLOM BAXTIYOR O'G'LII	Комиссия аъзоси	Янгиҳаёт туман ҳокимлиги
Член комиссии	SAFAROV ILYOS RAXMANBERDIYEVICH	Комиссия аъзоси	Янгиҳаёт туман ҳокимлиги
Член комиссии	MARDONOV JAXONGIR ELBURUSOVICH	Комиссия аъзоси	Янгиҳаёт туман ҳокимлиги
Член комиссии	NURMATOV ABDURASHID ABDURAXIMOVICH	Комиссия раиси ўринбосари	Янгиҳаёт туман ҳокимлиги

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 03.06.2022 года № лота 95336.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке проектно-сметных работ
Подробное описание	Янгиҳаёт туман Гулшанобод МФЙ кўчаларига камералар ўрнатиш ишларига смета хужжатларини тайёrlаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	2 716 000.00
Стартовая сумма	2 716 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 V. Лойиҳа-смета хужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўздан кечиргандилиги тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиҳа-смета хужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўрганлиги ва ўрганиб чиқканлиги

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ NEW NATIONAL WAY	2	1	0	Экспертная		
ООО AKBAR ARCH ARCHITECTS	2	1-илова	2	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	2	объектини кўздан кечирганлиги тўғрисида маълумотнома	2	Экспертная		

Критерий №2 III. Энг яхши таклифларни танлашдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Энг яхши таклифларни танлашдаги ўхшаш ишларни ўз кучи билан бажариш: йилига буюртмачи бошланғич нархининг 50% сўмлик ва ундан кўп. (ҳар бир йил 5 балл билан баҳоланади). 2. Энг яхши таклифларни танлаш савдосига ўхшаш профил бўйича охирги йили ўз кучи билан бажариш.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ NEW NATIONAL WAY	15	15	8	Экспертная		
ООО AKBAR ARCH ARCHITECTS	15	5 илова	15	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	15	охирги 3 йиллик иш тажрибаси	15	Экспертная		

Критерий №3 I. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Иш стажи 3 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 2. З 3 йил иш стажига эга 2 кишидан кам бўлмаган дипломга эга мухандис ҳамда архитектор ходимларни мавжудлиги. 3. Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош мухандисини мавжудлиги. 4. Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош архитекторини мавжудлиги. 5. Доимий равишда ишловчи 2 тадан кам бўлмаган малакали ишчи ходимлар (мутахассислар) мавжудлиги. 6. Ходимларнинг ўртача сони 7 кишидан кам бўлмаган.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ NEW NATIONAL WAY	21	21	21	Экспертная		
ООО AKBAR ARCH ARCHITECTS	21	4 илова	4	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	21	умумий маълумотлар	21	Экспертная		

Критерий №4 IV. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган моддий-техник воситалари рўйхати

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Компьютер (ноутбук) техникалари 5 дона ва ундан кўп (ҳар бирига 2 балл). 2. Сметаларни ҳисоблаб чиқиша қўллаш учун дастурий комплекс(ABC4-uz) 1 та. 3. Принтер ва нусха қўпайтириш техникаси 2 та ва ундан кўп. 4. Ўлчов асбоблари (шагомер, метр ва ҳк..) 1 та

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ NEW NATIONAL WAY	20	20	12	Экспертная		
ООО АКБАР ARCH ARCHITECTS	20	3 илова	0	Экспертная		
ООО ОРТИМАЛ ARCHITECT GROUP	20	фойдаланадиган моддий-техник воситалари рўйхати	16	Экспертная		

Критерий №5 II. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг молиявий аҳволи.

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 50 млн. сўм ва ундан кўп. 2. Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги. 3. Охириги йилда 50 млн. сўм ва ундан юқори фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги. 4. Иш ҳақи фонди 50 млн. сўм ва ундан юқори. 5. Тўловга қодирлилик ёки қоплаш коэффициенти 1,25 ва ундан кўп. 6. Ўз айланма маблағлари билан таъминланганлик коэффициенти 0,2 ва ундан кўп. 7. Объектнинг буюртмачи белгилаган бошланғич нархининг 20% миқдоридаги ҳисоб рақамида маблағлар мавжудлиги.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ NEW NATIONAL WAY	42	42	23	Экспертная		
ООО АКБАР ARCH ARCHITECTS	42	2 илова	14	Экспертная		
ООО ОРТИМАЛ ARCHITECT GROUP	42	молиявий аҳволи	36	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MCHJ NEW NATIONAL WAY	2 716 000.00	2 350 000.00	02.06.2022 16:08:33	30.00
ООО АКБАР ARCH ARCHITECTS	2 716 000.00	2 700 000.00	02.06.2022 16:21:37	
ООО ОРТИМАЛ ARCHITECT GROUP	2 716 000.00	2 690 000.00	02.06.2022 16:40:06	26.21

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MCHJ NEW NATIONAL WAY	44.8	30	74.8

ООО AKBAR ARCH ARCHITECTS	24.5		24.5
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	63	26.20818	89.20818

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 95336 от 03.06.2022 года на приобретение Янгиҳаёт туман Гулшанобод МФЙ кўчаларига камералар ўрнатиш ишларига смета хужжатларини определила победителем:

ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP
307759386

и резервный исполнитель: MCHJ NEW NATIONAL WAY (308766719)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	XALISOV DONIYOR MURATOVICH	Согласен	
Член комиссии	XUSHVAQTOV ISLOM BAXTIYOR O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	SAFAROV ILYOS RAXMANBERDIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	MARDONOV JAXONGIR ELBURUSOVICH	Согласен	
Член комиссии	NURMATOV ABDURASHID ABDURAXIMOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 11 - aprel

I-33-76-14-220-K/22

Yangihayot tuman hokimligi

**“Фуқаролар ташаббуси жамғармаси” маблағлари ҳисобидан
Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали
энг кўп овоз тўплаган таклиф лойиҳаларини молиялаштириш бўйича
манзилли рўйхатни тасдиқлаш ҳамда маблағлар йўналтириш тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги “Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5072-сонли қарори ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати Кенгашиning 2021 йил 22 апрелдаги КҚ-213-IV-сонли ҳамда 2022 йил 26 январдаги “Туман (шаҳар) бюджетлари маблағларини жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларга йўналтириш тартиби тўғрисидаги намунавий низомга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги КҚ-302-IV-сонли қарорлари ижросини таъминлаш мақсадида, Жамоатчилик фикри асосида тадбирларни шакллантириш, баҳолаш, танлаб олиш ҳамда ижросини мониторинг қилиш бўйича Ишчи комиссияning 2022 йил 4 апрелдаги 2-сонли йиғилиш баённомасини инобатга олиб, халқ депутатлари Янгиҳаёт туман Кенгаши,

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали Жамоатчилик фикри асосида тадбирларни шакллантириш, баҳолаш, танлаб олиш ҳамда ижросини мониторинг қилиш бўйича Ишчи комиссия ахбороти маълумот қабул қилинсин.

2. Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида, ўрнатилган тартибда, шакллантирилган ва танлаб олинган таклиф лойиҳалари 1-иловага, Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида, ўрнатилган тартибда, шакллантирилган ва танлаб олинган таклиф лойиҳаларидан энг кўп овоз тўплаш натижаларига кўра ғолиб деб топилган тадбирлар рўйхати 2-иловага мувофиқ ижро учун қабул қилинсин.

3. Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот порталаида энг кўп овоз тўплаш натижаларига кўра ғолиб деб топилган ташабbusларга ажратиладиган маблағларнинг иқтисод бўлган қисмини кейинги ўриндаги таклифларга босқичма-босқич йўналтирилиши инобатга олинсин.

4. Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот порталаида энг кўп овоз тўплаш натижаларига кўра ғолиб деб топилган тадбирларни Янгиҳаёт тумани “Фуқаролар ташаббуси жамғармаси” маблағлари ҳисобидан молиялаштириш бўйича Манзилли рўйхат 3-иловага мувофиқ тасдиқлансан.

5. Манзилли рўйхат аосида ғолиб деб топилган тадбирлар учун ажратилган маблағлар ҳисобидан лойиҳа-смета ҳужжатлари ва экспертиза хулосаларини тайёрлаш ҳамда назорат ўлчови харажатлари амалга оширилсин.

Ғолиб деб топилган тадбирлар бўйича лойиҳа-смета ҳужжатлари ва экспертиза хулосаларига кўра ҳар бир тадбир учун аниқланган маблағлар доирасида “Фуқаролар ташаббуси жамғармаси” маблағлари ҳисобидан маблағ ажратиш ҳамда маблағлар етишмаган ҳолда туман маҳаллий бюджетининг кўшимча манбалари ҳисобидан маблағ ажратиш чоралари кўрилсин.

6. Ишчи комиссия:

халқ депутатлари туман Кенгаши томонидан тасдиқланган “Фуқаролар ташаббуси жамғармаси маблағлари ҳисобидан, жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларни молиялаштириш бўйича Манзилли рўйхат” ва бошқа ахборотларни Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” ахборот порталида ҳамда туман ҳокимлигининг расмий веб сайти орқали аҳоли ва кенг жамоатчилик эътиборига ҳавола этиш;

халқ депутатлари туман Кенгашининг мазкур қарори ижросини таъминлаш бўйича, белгиланган тартибда, туман ҳокимининг маблағ ажратиш тўғрисидаги тегишли қарор лойиҳасини ишлаб чиқиш;

жорий йилнинг феврал ойида жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларни молиялаштиришга йўналтирилган маблағлар юзасидан кейинги босқич бошланадиган ойдан олдин халқ депутатлари туман Кенгашига ҳисбот киритиш таъминлансин.

7. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш халқ депутатлари Янгиҳаёт туман Кенгашининг Маҳаллий бюджетни шакллантириш ва ижро этиш, иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш ҳамда тадбиркорликни ривожлантириш масалалари бўйича доимий комиссия (Б.Рахимов) зиммасига юклатилсин.

Халқ депутатлари Янгиҳаёт
туман Кенгаши раиси



Х.Иногамов

Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining
2022 yil 11 apreldagi
I-33-76-14-220-K/22-son qaroriga
3-ilova

Ўзбекистон Республикаси “Оник бюджет” ахборот порталада энг кўп овоз тўлланни натижаларига
кўрағолиб деб топилган тайбирларин Йирихат тумани “Фуқаролар ташабуси жамғармаси” маблағатлари

№	Тайбирлар номи ва маҳмуми	Молидаштириш маҳаласи	Буортомчи бюджет ташабуси	Ажратиладиган маблағ микдори (сўм)
1	Йирихат тумани Ўстеплик-2 маҳаласи 23-й том қисмини тавъидларин (майдони 1160 кв.м)	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	278 400 000,0
2	Йирихат тумани Чарогон махалласи, Ўстеплик 2-мажзе 24-й том қисмини ташабусин (майдони 1400 кв.м)	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	336 000 000,0
3	Йирихат тумани 9-худуд 72 ва 73 уйларни обод килини Бутла: уйлар оддина законий болалар майдончасини курши	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Ободлошаштириш боншараси	600 000 000,0
4	Йирихат тумани Олчазор макаласи Плоҳирлик Г-64-1-38 бўйичасига сув очва тизими (канализация) гармонии тоғтиши	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	280 000 000,0
5	Йирихат тумани 58-сония ДМТТning ёник бассейни ташабурлаш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Мактабчага таълим бўйича	999 999 999,0
6	Йирихат тумани Чарогон макаласи Дўстлик-2 мажзе 2-кўп каганги ташабурлаш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	298 080 000,0
7	Йирихат тумани Ўстеплик-2 мажзе 26-йубийнинг том қисмини ташабурлаш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	298 080 000,0
8	Йирихат тумани Наверон макаласи Сергели-1 мажзе 20-йубийнинг том қисмини ташабурлаш (майдони 650 кв.м)	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	388 000 000,0
9	Йирихат тумани Наверон макаласи Сергели-1 мажзе 13-йубийнинг том қисмини ташабурлаш (майдони 1160 кв.м)	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	278 400 000,0
10	Йирихат тумани Наверон макаласи Сергели-1 мажзе 17-йубийнинг том қисмини ташабурлаш (майдони 1100 кв.м)	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	264 000 000,0
11	Йирихат тумандаги 33-сония ташабусини бўйича таълим мактабига парта ва стулдар харид кинини	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Халиқ таълими бўйича	260 000 000,0
12	Йирихат тумандаги 29-сония ташабусини бўйича таълим мактабига ступ ва парта экскортчилари сабабни янгинин сотиг опли	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Халиқ таълими бўйича	200 000 000,0
13	Йирихат тумандаги 36-сония ташабусини бўйича таълим мактабига замонийга пешта ва стул билан жойхозли	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Халиқ таълими бўйича	250 000 001,0
14	Йирихат тумандаги 35-сония ташабусини бўйича таълим мактабига кебосли жиҳозларни жарҳоларни жарҳоларни жарҳоларни	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Халиқ таълими бўйича	200 000 000,0
15	Йирихат тумани Наверон макаласининг ичи кўнчарига вилоғо куратува камера ўрнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	199 000 000,0
16	Йирихат тумани Гулданобод макаласинати кўнчарига ичи камера ўрнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	194 000 000,0
17	Йирихат тумани Марҳамат макаласи кўнчарига замонийий вилоғо камерлар ўрнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	203 000 000,0
18	Йирихат тумани Ёрниҳаёт макаласини ичи кўнчарига законовий видео-хизматува камерларини ўрнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	195 000 000,0
19	Йирихат тумани Йигиттуроғуш макаласи ичи кўнчаригини кузатув камерларни юлан жойхозлаш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	204 000 000,0
20	Йирихат тумани Хўмо макаласинати котриб ичи кўнчарига камера урнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	189 000 000,0
21	Йирихат тумани Ибрат макаласи кўнчарига вилоғо кузатув ўрнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	217 000 000,0
22	Йирихат тумани Олчазор макаласи кўнчарига вилоғо кузатув камераси ўрнатиш	Фуқаролар ташабуси жамғармаси	Туман хокимиги	550 000 000,0
Жами				6 881 960 000,0